



FOREIGN RELATIONS OF THE BUKHARA PEOPLE'S SOVIET REPUBLIC (BPSR)

Sanjar Sayfitdinovich Kurbanov

2nd-year Master's student

Oriental University, Faculty of History

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: BPSR, RSFSR, Iran, Afghanistan, Turkey, Azerbaijan, Ministry of Foreign Affairs, foreign relations, international relations, diplomacy, representation, politics.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article analyzes the external relations of the Bukharan People's Soviet Republic (hereinafter BNSR) in 1920-1924. Attempts of the Bukharan Republic to establish diplomatic and trade relations with such states as the RSFSR, Iran, Afghanistan, Turkey, and Azerbaijan are highlighted. According to the data obtained, although the BNSR carried out certain independent actions in the field of foreign policy, its foreign relations were largely formed within the framework of the influence of the Soviet Union. The article is written based on the historical-analytical method and is based on archival documents and scientific research.

BUXORO XALQ SOVET RESPUBLIKASI (BXSR)NING TASHQI ALOQALARI

Sanjar Sayfitdinovich Kurbanov

Oriental universiteti, Tarix fakulteti

2-bosqich magistranti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: BXSR, RSFSR, Eron, Afg'oniston, Turkiya, Ozarbayjon, Tashqi ishlar Nozirligi, tashqi aloqalar, xalqaro munosabatlar, diplomatiya, vakolatxona, siyosat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (keyingi o'rinlarda BXSR)ning 1920-1924-yillardagi tashqi aloqalari tahlil qilinadi. Buxoro Respublikasining RSFSR, Eron, Afg'oniston, Turkiya va Ozarbayjon kabi davlatlari bilan diplomatik va savdo munosabatlarini o'rnatishga bo'lgan urinishlar yoritib berilgan. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, BXSR tashqi siyosat sohasida ma'lum mustaqil harakatlarni

amalga oshirgan bo'lsada, uning tashqi aloqalari ko'proq Sovet Ittifoqi ta'siri doirasida shakllangan. Maqola tarixiy-tahliliy usul asosida yozilgan bo'lib, arxiv hujjatlari va ilmiy tadqiqotlarga tayanadi.

ВНЕШНИЕ СВЯЗИ БУХАРСКОЙ НАРОДНОЙ СОВЕТСКОЙ РЕСПУБЛИКИ (БХСР)

Санжар Сайфитдинович Курбанов

Студент 2-го курса магистратуры

Университет «Oriental», исторический факультет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: БНСР, РСФСР, Иран, Афганистан, Турция, Азербайджан, Министерство иностранных дел, внешние связи, международные отношения, дипломатия, представительство, политика.

Аннотация: В данной статье анализируются внешние связи Бухарской Народной Советской Республики (далее - БНСР) в 1920-1924 годах. Освещены попытки Бухарской Республики установить дипломатические и торговые отношения с такими странами, как РСФСР, Иран, Афганистан, Турция и Азербайджан. Согласно полученным данным, хотя БНСР осуществляла определённые самостоятельные действия во внешней политике, её внешние связи формировались в большей степени в рамках влияния Советского Союза. Статья написана на основе историко - аналитического метода и опирается на архивные документы и научные исследования.

Kirish. 1920-yil sentyabr oyida Buxoro amirligining tugatilishi va uning o'rnida Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi Markaziy Osiyoda, xususan O'zbekiston tarixida yangi siyosiy davrni boshladi. G'arb va Sharq mamlakatlari geosiyosiy o'zgarishlar negizida (konteksida), BXSR mustaqil tashqi siyosat olib borishga urinib, o'zining xalqaro maqomini mustahkamlashga intildi. Mazkur maqolada BXSRning tashqi aloqalari, xususan, RSFSR, Eron, Afg'oniston, Turkiya va Ozarbayjon kabi davlatlar bilan o'rnatgan diplomatik munosabatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma olti yilliga bag'ishlangan tantanali marosimida ta'kidlaganidek: "Jonajon Vatanimizning ko'p ming yillik tarixida yangi davr — erkinlik va ozodlik, milliy tiklanish va taraqqiyot davri boshlandi. Biz bugun xalqimizning xohish irodasi bilan tanlab olgan, istiqloq yillarida bosib o'tgan og'ir va mashaqqatli, shu bilan birga,

g'oyat sharaflı yo'limizni sarhisob qilar ekanmiz, tarixan qisqa bir davrda o'z takdirimizni o'zimiz hal etish, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash, milliy davlatchiligimizni, azaliy qadriyat va urf-odatlarimizni, muqaddas dinimizni tiklash, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida ulkan yutuq va marralarni qo'lga kiritganimizni faxr bilan tilga olamiz" [1].

Sovet hokimiyati yillarida BXSРning tashqi aloqalar tarixi mavzusi yetarlicha o'rganilmagan va kommunistik mafkura hamda sovet davlati siyosati doirada talqin qilingan. Xususan ushbu mavzuda L.Landa [2], A.Babaxodjayeв [3], A.Ishanov [4], A.Shukurov [5] o'z asarlarida sovet mafkurası va g'oyalari asosida talqin qilingan.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston va uning hududida sovet davrida mavjud bo'lgan davlatlarning tarixiga xolis baho berish boshlandi. Q.Rajabov[6], F. Qosimov[7], U.Rashidov[8], Sh.Hayitov[9], T.Nuritdinov[10], A.Pardayev[11], K.Rahmonov[12], M.Allanazarov [13] lar tomonidan BXSР tarixining turli masalalari o'rganilgan. Ayniqsa, ularning tadqiqotlarida Buxoro respublikasining tashqi aloqalari bo'yicha e'tiborga molik qimmatli materiallar keltirilgan.

Xorijiy va o'zbek tarixchilari tadqiqotlarida XX asr boshlarida Buxoroda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, sovet hokimiyatiga qarshi kurash masalalari o'rganilib, tashqi aloqalar masalasi tadqiqot doirasidan chetda qolgan.

Adib Xalid [14], Hayit Boymirza [15] kabi xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ushbu yo'nalishda izlanishlar olib borilmoqda.

Mavzuga oid arxiv ma'lumotlarni O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA)dagi mavjud bo'lgan 45-fondi (Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Turkiston ASSRdagi siyosiy-iqtisodiy vakolatxonasi), 46 fondi (Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Markaziy Inqilobiy Qo'mitasi (Buxrevkom)), 47-fondi (BXSР Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (BXSР MIQ), BuxMIQ), 48-fondi (BXSР Xalq Nozirlari Sho'rosi), 49 fondi (Buxoro Iqtisodiy Kengashi), 1914-fondi – (BXSРning Kavkazdagi savdo ishlari bo'yicha vakolatli vakili boshqarmasi) hujjatlarida hamda markaziy va davriy matbuot nashrlari "Buxoro axbori", "Ozod Buxoro", "Известия Всебухарского ЦИКа и ЦК Бухарской Компартии", "Yash Turkistan" "Yeni Turkistan" gazetalari, hamda "Бухарская жизнь", "Военная мысль", "Вопросы Истории", "Жизнь национальностей", "Новый Восток" jurnallarida nashr qilingan maqolalarda e'tiborga molik bo'lgan ma'lumotlar mavjud.

BXSР ning qo'shni davlatlar, Sharq va G'arb mamlakatlari bilan siyosat, iqtisodiyot, madaniyatdagi aloqalar tarixi, respublika hukumatining Buxoroda zamonaviy xalq xo'jaligini tashkil qilish va uni rivojlantirishdagi hamkorligi, sovet hokimiyatining tashqi aloqalarga bevosita ko'rsatgan salbiy ta'siri kabi masalalarni birlamchi tarixiy manbalar asosida o'rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining 1920-1924-yillardagi qisqa vaqt davomidagi faoliyati O'zbekiston tarixida alohida o'z o'rniga ega. Bu jumhuriyat

(respublika) ushbu yillarda O'zbekiston tarixida davlat boshqaruvi, ichki va tashqi siyosat, iqtisodiyot, ta'lim va madaniyatda o'ziga xos nom qoldirdi. Bu yerda hukumat rahbari bo'lgan Fayzulla Xo'jayev va safdoshlarining xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim.

Tahlil va natijalar. O'zbek xalqi milliy davlatchiligi qadimiy va boy tarixga ega. Shunga mos ravishda o'zbek diplomatiyasining ham chuqur tarixiy ildizlari bor. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Qadimdan mamlakatimiz hududida diplomatiya an'analari shakllangan, ajdodlarimiz yaqin va uzoq xorij bilan do'stlik va hamkorlikda yashashga intilganlar" [16].

Buxoro Xalq Sovet Respublikasiga tegishli bo'lgan Respublikamizdagi davlat arxivlaridan, yozilgan ilmiy ishlardan hamda o'sha davrda nashr qilingan matbuot sahifalaridan olingan ma'lumotlar bilan tanishish jarayonida Fayzulla Xo'jayev BXSР hukumati raisi bo'lgan dastlabki kunlaridanoq mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritishga, respublikada iqtisodiy islohotlar o'tkazish va demokratik erkinliklarni joriy qilishga, sovet Rossiyasi va xorijiy davlatlar bilan teng huquqli aloqalar o'rnatishga va iqtisodiy shartnomalar tuzishga alohida e'tibor qaratganini kuzatish mumkin.

O'zbek milliy davlatchiligida o'ziga xos bosqich hisoblangan, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati davri (1920-1924-yillar) tarixiy tadqiqotlar tizimida hanuzgacha dolzarbligi bilan muhim o'rin tutadi. Ayniqsa uning xorijiy davlatlari bilan tashqi aloqalari haqida sanoqligida tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borgan.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan geosiyosiy o'zgarishlar, jumladan, Buxoro amirligining tugatilishi va uning o'rnida 1920-yil

8-oktyabrda BXSРning tashkil topishi, mintaqa tashqi aloqalarida yangi sahifani boshladi. Yangi Buxoro Respublikasi o'z tashqi siyosiy aloqalarini yo'lga qo'yish va xorijiy davlatlar bilan munosabatlarni mustahkamlash maqsadida Tashqi ishlar nozirligini tuzdi. Nozirlikning asosiy faoliyati xorijiy davlatlar bilan do'stona aloqalar o'rnatish, savdo aloqalarini mustahkamlash, bahsli, muammoli masalalarni hal etishga qaratilgandi.

BXSР Tashqi ishlar nozirlari Fayzulla Xo'jayev, Abdurashid Mukamilov, Abdurauf Fitrat, Otaulla Xo'jayev, Sharif Xodjayev (Sharif Xo'ja Katta Xo'ja) lar xorijiy davlatlar bilan tashqi aloqalarni o'rnatishida ulkan hissa qo'shganlar.

Buxoro Respublikasining Tashqi ishlar nozirligi Buxoro Markaziy Ijro Qo'mitasi (keyingi o'rinlarda BuxMIQ) va Xalq Nozirlar Kengashining respublika tashqi ishlar siyosati sohasidagi qarorlari va tadbirlarining ijrochisi va ayni paytda uning boshqa davlatlar bilan aloqalarni o'rnatishdagi vakili bo'lgan.

Tashqi ishlar nozirligi faoliyati 1923-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan Nizomga ko'ra belgilangan va quyidagi vazifalarni amalga oshirgan:

1. BXSРning boshqa mamlakatlardagi muxtor vakillari va konsullarini tayinlash, o‘zaro almashtirish va ishdan bo‘shatish;
2. BXSРda boshqa davlatlarning vakolatli vakillari yoki konsullari tayinlanishiga ruxsat berish;
3. O‘z hukumatining ruxsati bilan boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalarga kirishish.
4. O‘z hukumatining ruxsati bilan boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalarni to‘xtatish;
5. Qo‘shni mamlakatlarning vakillari bilan birgalikda Buxoro Sovet Respublikasining davlat chegarasini oldindan belgilash;
6. BXSРning xorijiy davlatlar bilan o‘zaro munosabatlari bo‘yicha turli nizomlarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash;
7. Buxoro Respublikasida yashovchi boshqa xorijiy mamlakatlar fuqarolariga taalluqli masalalarni hal etish.

Tashqi ishlar nozirligida ishlar devonxonasi quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lgan:

1. Ishlar devonxonasi:

- a) Nozirlikning yozishmalari, pochta taqsimoti va shaxsiy tarkib bilan shug‘ullanuvchi umumiy devonxona.
- b) Nozirlik bo‘yicha barcha pul va buxgalteriya hisobotlari va smetalarni hisobini olib boruvchi moliyaviy bo‘lim.
- v) Xo‘jalik bo‘limi.
- g) pasport – viza (xorijga chiqish huquqini beruvchi) faoliyatini amalga oshiruvchi pasportlar bo‘limidan iborat bo‘lgan.

2. Konsullik bo‘limi. Ushbu bo‘limga vakolatxona va xorijiy davlatlar bilan aloqalar zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, BXSРning xorijiy davlatlardagi manfaatlarini himoya qilgan. Uning huzurida Buxoro respublikasi nozirlikning yozishmalarini boshqa mamlakatlardagi vakolatxonalari va konsulliklariga yetkazib berish bilan shug‘ullanuvchi diplomatik kurerlari bo‘lgan.

3. Nozirlikning chet ellardagi vakolatxonalari va konsulliklari bilan axborot yozishmalarini, xorijiy davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va ichki ahvoli to‘g‘risida davriy ma‘ruzalar tayyorlovchi axborot bo‘limi.

Tashqi ishlar nozirligining turli davrlarda Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Ozarbayjon va RSFSРda vakolatxonalari mavjud bo‘lgan.

Turkiya, Eron, Afg‘oniston, RSFSР, Turkiston ASSR va XXSRda bosh konsullik bo‘limlari, Samarqand, Ashxobod va Tiflisda konsulik bo‘limlari faoliyat yuritgan.

1924-yilda O‘rta Osiyo respublikalarining milliy-davlat chegaralanishi o‘tkazilgach, BXSР hududi O‘zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston respublikalari tarkibiga kirdi.

1924-yil 18-noyabrda BXSRning boshqa muassasalari qatori Tashqi ishlar nozirligi ham tugatildi. Uning vazifalari xorijiy davlatlar bilan aloqalar bo'yicha SSSR Tashqi Ishlar vazirligi (NKID)ning O'rta Osiyodagi Vakolatli raisligiga topshirildi. O'rta Osiyo respublikalarini tanishtirish va himoya qilish uchun Markazda bu respublikalarning Moskvadagi doimiy vakolatxonalarini tashkil etildi [17].

1920-yil sentyabrda BXSR hukumati tuzilganidan so'ng, yangi hukumat G'arb va Sharqning bir qator mamlakatlari bilan diplomatik va savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishga harakat qildi. Jumladan, Afg'oniston, Eron, Turkiya kabi davlatlar bilan elchilik almashinuvlari yo'lga qo'yilib, bu davlatlarda Buxoro Respublikasi vakolatxonalarini ochish harakati boshlandi. BXSR Ozarbayjon bilan ham do'stona munosabatlar o'rnatishga alohida e'tibor qaratdi.

BXSR hukumati mavjud bo'lib turgan yillar xorijiy davlatlar va qo'shni respublikalar bilan imkon qadar mustaqil diplomatik hamda savdo sotiq aloqalari o'rnatishga harakat qilindi. Respublika hukumatining diplomatik vakillari Turkiston ASSR, XXSR, Ozarbayjon Respublikasi, Tatariston Respublikasi, Boshqirdiston, RSFSR, Qirg'iziston Respublikasi kabilarga yuborildi. Shuningdek, ushbu respublikalardan Buxoroga vakillar 1921-1922-yillarda yetib keldilar. BXSR tomonidan Xivaga (XXSR) Mirbobo Muhsin o'g'li va Fathulla Komil o'g'li vakil, Rossiyaga muvaqqat namoyanda bo'lib Muhiddin Mansurov, Najim Husaynov, Mirzo Bahram Ahmadqul, Turkiston ASSR (Toshkent) ga avval Mirmuhsin Mirfozilov, 1922-yilda A.Akmalov, Abduvohidovlar elchi, Qirg'iziston jumhuriyati poytaxti O'renburgga (Orenburg) BXSRning konsuli yuborilgandur..., Ashxobod shahrida Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati (BXSHJ) safarot xonasi (elchixonasi) ochilib, 1922-1923-yillarda ishladi. Astraxanga Buxoro fuqarolari huquqini himoya qilish uchun maxsus bir konsul o'rtoq Abdulla Iskandar yuborildi... BXSRdan Qosim Qoriyev va Muhammad Abdukarimov Eronga elchi qilib yuborildilar... 1922-yilning mart oyida Buxorodan Mahmud Rajab va Maxmud Nazar Turkiyaga elchi bo'lib ketdilar. Abdurahim Yusufzoda boshchiligidagi 13 nafar elchilar guruhi Afg'oniston poytaxti Qobulga elchi bo'lib ketdi... Germaniya poytaxti Berlinga BXSR hukumatining maxsus vakolatxonasi ish boshladi [18].

BXSRning Afg'onistonda favqulodda va muxtor elchisi hamda hukumat elchixonasi mavjud bo'lib, 1923-yilning oxirigacha, avval Abdurahim Yusufzoda (1880-1937), keyin esa Hoshim Shoyiq (Hoshim Shayx Buxoriy, 1882-1954) elchilik missiyasini bajardilar [19].

1920-yil 13-sentyabrda RSFSRning favqulodda elchisi Suriya va Afg'oniston hukumati o'rtasidagi sovet-afg'on muzokaralari natijasida Moskvada ratifikatsiya qilinishi kerak bo'lgan do'stlik to'g'risidagi dastlabki sovet-afg'on shartnomasi tuzildi va qabul qilindi.

Afg'oniston bilan bevosita chegaradosh bo'lgan yosh Buxoro Xalq Sovet Respublikasi o'rtasida diplomatik muzokaralar boshlandi. BXSR hukumati Afg'oniston hukumatiga amirning

agʻdarilgani va Buxoroda Sovet hokimiyatining oʻrnatilgani toʻgʻrisida xabar berib, 1920-yil 20-sentyabrda afgʻon amiriga maxsus nota bilan murojaat qilib, unda Buxoro va Afgʻoniston oʻrtasida diplomatik munosabatlar oʻrnatishni va “Eng yaqin vaqt ichida oʻzaro vakolatxonalar almashinuvini tayinlashni” taklif qildi.

1920-yil 17-dekabrda Afgʻoniston hukumati BXSR bilan diplomatik munosabatlar oʻrnatishga rozilik bildirdi va shu bilan birga Buxoroga Abdulxodixon boshchiligidagi favqulodda elchilarni yubordi.

1921-yil 21-yanvarda BXSR Kobulga Yusufzoda boshchiligidagi favqulodda elchilarni yubordi va Afgʻoniston hukumatiga Buxoro amirligining Qobuldagi sobiq elchisi Qori-Habibulla toʻqsaboning vakolatlari bekor qilinganini maʼlum qildi.

Yetib kelgan afgʻon elchixonasi tez orada “Sovet Buxorosida... Buxoro mustaqilligining bir yilligini katta tantana bilan nishonladi”. RSFSR vakilining Buxoroga kelishi munosabati bilan uyushtirilgan tantanali qabul marosimida Abdulxodixon unga tabrik yoʻllaydi.

“Sovet Rossiyasi, – dedi u, – Sharqdagi barcha mazlum mamlakatlarning ozodligi va mustaqilligi uchun kurashayotgan birdan bir davlatdir... Men barcha musulmon xalqlariga Sovet Rossiyasi bilan qardoshlik ittifoqi tuzish taklifi bilan murojaat qilaman, chunki faqat birlashgan kuchlarga Yevropa va Osiyoda hukmronlik qilayotgan umumiy dushman ustidan gʻalaba qozonishi mumkin” .

Qobulda dastlabki sovet-afgʻon shartnomasining imzolanishi BXSR bilan doʻstlik va diplomatik munosabatlarning oʻrnatilishi Afgʻonistonning xalqaro mavqeini mustahkamladi [20].

Eronda ham BXSR diplomatlari favqulodda va muxtor elchi maqomida boʻlishgan. Koʻpgina respublikalarda va mamlakatlarda Buxoro diplomatlari 2-darajali maqomga ega boʻlib, vakolatxonalarning konsuli yoxud ishonchli vakil (3-daraja) sifatida faoliyatlarini yuritishgan. Ular vakolatxona aʼzosi, savdo aloqalari boʻyicha attashe, madaniy aloqalar boʻyicha vakil boʻlib hukumat manfaati yoʻlida xizmat qilishgan. Sovetlashtirish siyosati oqibatida BXSR elchixonlari SSSR elchixonalariga qoʻshib yuborildi yoxud xorijdagi vakolatxonalar tugatildi. BXSR hukumati subyekt sifatida tugatilganidan soʻng, koʻpgina diplomatlar Buxoroga chaqirib olindi [21].

Sovet hukumati chor hukumatining Eron bilan, shuningdek, uchinchi davlatlar bilan Eronga nisbatan va uning zarariga tuzgan barcha shartnoma, bitim va konsessiyalarini bekor qildi.

RSFSR hukumati Eronning chor Rossiyasi oldidagi barcha qarz majburiyatlarini bekor qildi va unga Rus hisob-ssuda bankini, uning hududida ruslar tomonidan qurilgan shosse va temir yoʻllarini, Urmiya koʻlidagi bandargohlar va omborlarni, telegraf va aloqa taʼrmoqlarini va Enzeli portini topshirdi. Eronning Kaspiy dengizida oʻz flotiga ega boʻlish huquqi tasdiqlandi. Oʻz navbatida, Eron hukumati Sovet Rossiyasiga Kaspiy dengizining janubiy qirgʻogʻidagi baliqchilik xoʻjaliklarini ekspluatatsiya qilish huquqini berish majburiyatini oldi [22].

Sovet-Eron shartnomasi imzolanganidan ko'p o'tmay, Buxoro respublikasi hukumati Eron hukumatiga do'stona nota bilan murojaat qildi.

“Endigina ozodlikka chiqqan Buxoro xalqi butun xalq hukumati timsolida, – deyilgandi nota matnida, – Eron xalqiga... va uning hukumatiga o'z mamlakatining ozodligi va mustaqilligi uchun ingliz imperializmiga qarshi kurashda ko'rsatayotgan matonati va namunali jasorati uchun samimiy hamdardlik bildiradi”.

Xuddi shu notada BXSR Eronga ular o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatishni taklif qildi. “Buxoro xalq hukumati ikki mamlakat manfaatlarining mushtarakligi, o'z fuqarolarining shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish va qo'riqlash hamda hukumatlar o'rtasida doimiy do'stona aloqalar o'rnatish yo'lida oliyjanob Eron hukumatiga diplomatik vakolatxonalar almashinuvini yo'lga qo'yishni taklif etishni o'zining uzluksiz burchi deb hisoblaydi, bu vakolatxonalar faoliyatining asosini, asosan, ikki mamlakat o'rtasida mustahkam va abadiy do'stlik asosida shartnoma tuzish uchun qulay zamin hozirlash tashkil etadi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati, oliyjanob Eron hukumati bunga o'z roziligini bildirishiga va Buxoroning do'stona maktubiga javobni kechiktirmasligiga chuqur ishonch bildiradi”. Natijada har ikki davlat o'zaro vakillar almashdi.

Ayni paytda, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi bilan Eron o'rtasida diplomatik aloqalar yo'lga qo'yildi. Erondan ma'lum qilinishicha, u yerga yuborilgan BXSR diplomatik vakillari Qosim Qoriyev va Muhammad Abdulkarim 1922-yil yanvar oyida “Tehronga muvaffaqiyatli yetib kelgan va u yerda juda samimiy qabul qilingan” [23].

Turkiya hukumati 1921-yil 16-martida RSFSR bilan diplomatik va hamkorlik shartnomasini imzolaydi. Sovet hukumatining mutassadilari Lenin, Chicherin, Karaxanlardan Mustafo Kamol podshoning Moskvadagi vakili Bekir Semibey moliyaviy yordam so'raydi. Sovet davri tarixiy adabiyotlarida 1920-yil sentyabrdan 1922-yil may oyiga qadar sovet hukumati uchun og'ir va mashaqqatli yillar bo'lib, Mustafo Kamol hukumatiga BXSR hukumatida avval moliya vaziri, keyin esa Markaziy Ijroiya Qo'mita raisi lavozimida ishlagan Usmon Xo'ja Po'latxo'jayev (1878-1968) Buxoro hukumati xazinasidan 100 mln. oltin so'm mablag' bilan moddiy yordam ko'rsatgan. Ushbu mablag'ning asosiy qismi Moskvada saqlanib qolinib, 10/1 ulushigina Onado'li (Turkiyaga) yuborilgan [24].

Ikki hukumat o'rtasidagi diplomatik aloqalar esa ancha oldinroq,

1920-yilning qishidayoq boshlangan edi. Bu yo'nalishda tashabbus “Anqara muvaqqat hukumati” tomonidan boshlanib, 1920-yil BXSR hukumati tashkil topganidan 4 oy o'tar o'tmas Mustafo Kamolning hukumati BXSRga birinchi o'zining elchilarini yubordi. Buxoroda birinchi bo'lib xorijiy mamlakatlardan turkiya elchixonasi ish boshlaydi. Mustafo Kamol yuborgan

Turkiya elchilari guruhiga G'olib posho boshchilik qilgan. Anqara hukumatining Buxoro respublikasidagi elchixonasi birinchi kotibi, taniqli turk yozuvchisi Rushen Ashraf bo'lgandi.

1922-yilning mart oyida Buxoro Respublikasidan Mustafo Kamol posho hukumatini rasmiy suratda tanish va o'zaro munosabatlar o'rnatish uchun Mahmud Nazar hamda Mahmud Rajab afandilar boshchiligida buxorolik vakillar Anqaraga tashrif buyurishdi. Buxoro hay'atini rasmiy ravishda "Muvaqqat Anqara hukumati" tashqi ishlar vazirining muovini Ziyodbek hamda xorijiy ishlar vakili Yusuf Kamolbeklar kutib oladilar [25].

Buxoro hay'ati vakillari Mustafo Kamol poshoga hurmat va ehtirom ramzi sifatida yurtimizdan olib borilgan oltin dastali qilich, Amir Temur zamonida ko'chirilgan Qur'oni Karimning nodir nusxalaridan birini hamda Turkiya xalq askarlari uchun Buxoro tasviri tushirilgan nishonlar taqdim etishdi [26].

Buxoroning Kavkazorti o'lkasidagi Ozarbayjon bilan hamkorlik aloqalari o'ziga xos xarakterga ega. XVII – XVIII asrlarda Ozarbayjonning Ganja, Shemaxa, Bok-u, Ardabel kabi shaharlari bilan Buxoro savdogarlari qizg'in savdo-sotiq olib borishgan.

Buxorodan Ozarbayjonga jun, qorako'l teri, hunarmandchilik buyumlari, qorako'l teridan qilingan telpaklar chiqarilgan. Ozarbayjondan esa, neft va ipak mahsulotlari Buxoroga keltirilganligi haqida ko'plab manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Inglizlarning "Moskva savdo kompaniyasi" (1555-yilda tashkil topgan) a'zolari hisoblangan R.Xogt va G.Tomson XVIII asrning 40-yillarida O'rta Osiyoxonliklari bo'ylab sayohatlar qilishdi. Ularning maqsadi Eron va Kavkazorti orqali Buxorga ingliz savdosi uchun yo'l ochish edi. Ular ma'lumoticha, Buxoro xonligining tashqi savdodan oladigan bir yillik daromadi 1000 dukat bo'lgan.

1921-yilning kuzida BXSJR hukumati boshlig'i, tashqi ishlar noziri Fayzulla Xo'jayev Ozarbayjonning tashqi ishlar noziriligiga telegramma yo'llab "Amir va uning tarafdorlarining istibdod va zulmini yiqitib, taraqqiy bo'lurg'a kirgan BXSHJ hukumati samimiy suratda birodarlik va qo'shnichilik robitasini taqdim qilib va har ikki jumhuriyatning iqtisodiy yuksalmaklari va siyosiy kelishuvlari maqsadi bilan bir-birlarida namoyandalar (vakillar) bo'lmog'i orzusidandur. Shu orzu ila tarafimizdan yuborilaturg'on vakilning qabulini iltimos qilaman. BXSHJ ham o'z jumhuriyatining ichida sizning vakilingizni ko'rsa, juda shod bo'lg'usidir", -deb yozgandi.

Yosh nozir Ozarbayjon hukumatidan ikki mamlakat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish, o'zaro hamkorlik munosabatlarini tiklash, ikki mamlakatda vakolatxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish taklifini kiritganidan so'ng, Bokudan ham ko'p o'tmay ijobiy javob olinadi.

Ozarbayjon Xorijiya komissiyasi (tashqi ishlar noziri) Hasanov (Husenov) javob telegrammasida: "Ozarbayjon Jumhuriyati bilan birodarlik robitasini qurmoq orzusini izhoringizga hukumatim nomidan arz qiladurmanki, tarafingizdan yuborilaturg'on namoyandamizni bo'lishi to'g'risida bo'lsa, hech ikkilanmasdan tarafimizdan bir kishi tayin

qilinib, sizga yuboriladur”, -kabi samimiy, ayni paytda o‘ta mamnunlik, rozilik hamda o‘rnatilajak munosabatlarga intilik ruhi singdirilgan javob beriladi.

Ozarbayjonga siyosiy vakil bilan birgalikda savdo-sotiq munosabatlarini yo‘lga qo‘yish uchun iqtisodiy vakil ham yuborish ko‘zda tutilgan. Uning vazifasi Ozarbayjon-Buxoro savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yish va Buxoroga Ozarbayjondan sotib olish kerak bo‘lgan mollar ro‘yxatini tavsiya etish edi.

“Buxoro axbori” gazetasining ma‘lumoticha, Ozarbayjon Respublikasining elchisi Ali Rizo Narimonov 1922-yilning avgust oyida Buxoro shahriga kelgan. Narimonov o‘rnatilganidan keyin, 1922-yil 27-avgustda Fayzulla Xo‘jayev uni qabul qilib, o‘z vazifasini bajarishga kirishganligi bilan tabriklagan. Ozarbayjon elchisi o‘z vaqtida tegishli hujjatlarni Buxoro hukumati rahbari va tashqi ishlar nozirlikiga taqdim etgan [27].

BXSR 1920-1924-yillarda Yevropa va Sharqning bir qator mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga mustaqil harakat qilgan. Ushbu yo‘nalishlarni BXSRning Kavkazortidagi savdo vakolatxonalarini orqali amalga oshirgan. Vakolatxona 1922-yil 28-fevraldan o‘z faoliyatini boshlagan [28].

Yevropaning Germaniya, Shvetsiya, Italiya, Fransiya va AQSH savdo-sanoat doiralari bilan o‘zaro iqtisodiy aloqalarni o‘rnatgan. Bularga misol tariqasida Amerikaning “Albert Girskovis va o‘g‘li”, Germaniyaning “Germaniya Qoradengiz”, “Shreder va uning sheriklari”, “Sinkop”, Shvetsiyaning “Atlas dizel”, Gruziyaning “Satsambo” kompaniyalarni keltirishimiz mumkin.

1921-yil 4-martda Moskvada RSFSR va BXSR o‘rtasida ittifoq shartnomasi imzolandi, unga ko‘ra Buxoro Xalq Respublikasiga sobiq Buxoro xonligi hududidagi mustamlakachilarga tegishli bo‘lgan barcha davlat va xususiy mulklar (yerlar, zavodlar, fabrikalar, temir yo‘llar va boshqalar) bepul berildi.

Shundan so‘ng, RSFSR va BXSR o‘rtasida iqtisodiy bitim tuzildi, unga ko‘ra RSFSR BXSRni sanoat uskunalari bilan ta‘minlash, texnik mutaxassislarni yuborish va hokazo, shuningdek, katta miqdorda pul subsidiyasi berish majburiyatini oldi [29].

Xulosa. BXSR tashqi aloqalari uning siyosiy mustaqillikka erishishdagi urinishlarining yaqqol namunasi. RSFSR bilan aloqalar bir tomondan yordam va himoya vositasi bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniyatlarini cheklardi. Afg‘oniston, Eron, Turkiya va Ozarbayjon davlatlari bilan aloqalar Buxoro elitasining mintaqaviy va musulmon olamida o‘z o‘rnini topishga bo‘lgan urinishlarini namoyon etardi. Biroq bu aloqalar Sovet Ittifoqi ta‘sirida cheklangandi. 1924-yilda BXSRning tugatilishi va uning Sovet Ittifoqiga qo‘shilishi natijasida mustaqil tashqi siyosat tugadi. Lekin 1920 -1924-yillardagi tashqi aloqalar Buxoro tarixida muhim siyosiy jarayonlarning bir qismi bo‘lib qoldi.

1922-1924-yillarda BXSР tashqi ishlar organlarining faoliyatida bir qancha o'zgarishlar kuzatildi. Sovet Ittifoqi (SSSR) 1922-yilda tashkil topganidan so'ng, Buxoro tashqi siyosati Moskva tomonidan muvofiqlashtirila boshladi. BXSР mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniyati cheklana boshladi. Bunga quyidagi omillar sabab bo'ldi:

- Sovet Ittifoqi tarkibidagi respublikalarning tashqi siyosati markazlashtirildi;
- Moskvadagi Tashqi ishlar xalq komissariati tomonidan barcha diplomatik vakolatxonalar o'z zimmasiga olindi;
- Buxoroda tashqi aloqalar asosan ichki masalalarga aylanib bordi-madaniy almashinuv, iqtisodiy hamkorlik va boshqa qo'shni respublikalar bilan hamkorlik kabi.

Bu holat, BXSР tashqi ishlar nozirligining vazifalari keskin kamayishiga, so'ngra esa nozirlikning tugatilishiga olib keldi.

1924-yilda amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish natijasida BXSР tugatildi va uning hududi O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR va Tojikiston ASSR tarkibiga kiritildi. Bu bilan BXSР Tashqi ishlar nozirligi ham o'z faoliyatini tugatdi. Sobiq nozirlik xodimlarining ayrimlari keyinchalik O'zbekiston SSR tashqi aloqalari, madaniyat sohalarida faoliyat yurishda davom etdilar.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashqi aloqalarini yoritishda manbalarning o'rni muhimdir. Xususan, arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari mazkur muammoni o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Mazkur materiallar orqali kelgusida BXSР tashqi aloqalari faoliyatini xolisona yoritish maqsad qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi // 2017-yil 1-sentyabr. №174 (6868), B. 1.
2. Ланда Л. Обзор фонда назирата иностранных дел БНСР. Историческая справка о фондообразователя. Автограф.
3. Бабаходжаев А. Афгано-бухарские отношения и происки британского империализма в Средней Азии в 1918 -1924 г.г.. Монография, Машинописная копия, 1960 г.; «Вклад Узбекистана в укрепление Советско-афганской дружбе и сотрудничества (1917-1967 г.г.)» Ташкент-1967; "Совет давлатини де-факто ва де юре таниш даврида Ўрта Осиё ва Ўрта Шарқда инглиз антисовет сиёсатининг барбод бўлиши.(1919-1924 йиллар)- Тошкент: 1959. 355 б.
4. Ишанов А. "Создание Бухарской народной советской республики (1920-1924 гг.)" Типография Объединенного издательства "Кзыл Узбекистан", Правда Востока" и

“Ўзбекистони Сурх”. Ташкент-1955.; “Бухарская Народная Советская Республика”.
Издательство “Ўзбекистан”. Ташкент-1969.

5. Shukurov A. “Buxoro Respublikasining RSFSR bilan hamkorligi”. “Fan” nashriyoti.
Toshkent-1972. 36 b.

6. Rajabov Q. O‘zbekistonning XX asrdagi tarixi. Ikkinchi kitob (1900-1939 yy.). “FAN”
nashriyoti davlat korxonasi. Toshkent 2023. – 250; Buxoro va Xorazm Respublikalari:
davlatchilikning demokratik shakli // “O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari”. “Sharq”
nashriyoti. Toshkent 2001. 185-202 b.; O‘zbekiston bilan Turkiya o‘rtasidagi iqtisodiy va
madaniy hamkorlik tarixidan. “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent 2017. 168 b.

7. Qosimov F. Buxoro Respublikasi tarixshunosligi. Buxoro -1996. 71 b.

8. Rashidov U. Buxoro Xalq Respublikasi (1920-1924 yy.). “Buxoro” nashriyoti. Buxoro -
2003, 100 b. ; Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925
yy.). Buxoro-2013.

9. Hayitov Sh. va b. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi: iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosat, madaniy
hayot (1920-1924 yy.). Buxoro nashriyoti. Buxoro-2005. 154 b.; Buxoro Xalq Sovet
Respublikasi va Sharq mamlakatlari (1920-1924 yy.) Buxoro, 2004.-78 b.; Buxoro Xalq Sovet
Respublikasi va Germaniya: hamkorlikning tarixiy lavhalari (1920-1924 yy.) “Fan” nashriyoti.
Toshkent- 2004. 102 b.

10. T.Nuridinov. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tashqi aloqalari (1920-1924 yy.).
Dissertatsiya. Farg‘ona - 2021.

11. Pardayev A. Buxoro va Xorazmdagi iqtisodiy kengashlar faoliyati (1920-1924 yy.).
“Yanginashr” nashriyoti Toshkent-2015, 168 bet.

12. Raxmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida (1920-1924
yy.). “Abu matbuot – konsalt” nashriyoti. Toshkent 2012. – 176 b.; “Buxoro axbori” va “Ozod
Buxoro” gazetalari Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixini o‘rganish manbasi. Avtoreferat.
Toshkent -2009.

13. Allanazarov M. Buxoro Xalq Sovet Respublikasida milliy rahbar arboblari va kadrlar
faoliyati (1920-1924 yy.) Dissertatsiya. Termiz-2022 y.

14. Адиб Халид. Центральная Азия: От века империй до наших дней. Издательство
Alpina Publisher. Москва-2024. 560 с. «O‘zbekiston tavalludi» Ilk SSSR davrida millat,
imperiya va inqilob. «Akademnashr», Toshkent 2022, 424 b.;

15. Hayit Boymirza. Turkiston Rossiya va Xitoy oralig‘ida (XV asrning ikkinchi yarmidan-
XX asr so‘ngigiga qadar). Yangi asr avlodi,2023-528 b.

16. Ўзбекистон Дипломатияси тарихи (Қадимги замонлардан ҳозирги кунгача) 6-
жилд. Масъул муҳаррир А.Х.Камилов. “Ўзбекистон” нашриёти. Тошкент-2019. 6 – варақ;

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Ташқи ишлар вазирлиги ва мамлакатимизнинг хорижий давлатлардаги элчихоналари фаолиятига бағишланган йиғилишдаги нутқи. 12 январь 2018 йил. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-manfaatlarini-khal-aro-mi-yesda-atiy-imoya-ilish-d-12-01-2018>.

17. О‘з. МА, R-2823 jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 98-ish, 1-varaq

18. Hayitov Sh. Rahmonov K. va b. Buxoro va buxoriylarning jahoniy shuhrati. “Navro‘z” nashriyoti. 2020 y. 138-139 varaqlar.

19. О‘sha yerda, 139 varaq.

20. Бабаходжаев А. Провал Английской политики в Средней Азии и на Среднем Востоке (1918-1924). Издательство Восточной Литературы. Москва -1962 г. стр.56-57

21. Shodmonov H., Rahmonov K. va b. Buxoro va buxoriylarning jahoniy shuhrati. “Navro‘z” nashriyoti. Toshkent - 2020-yil. 139 varaq.

22. Бабаходжаев А. Провал Английской политики в Средней Азии и на Среднем Востоке (1918-1924). Издательство Восточной Литературы. Москва -1962 г. стр.56-57

23. Shodmonov H., Rahmonov K. va b. Buxoro va buxoriylarning jahoniy shuhrati. “Navro‘z” nashriyoti. Toshkent - 2020-yil. 139 varaq.

24. Shodmonov H., Rahmonov K. va b. Buxoro va buxoriylarning jahoniy shuhrati. “Navro‘z” nashriyoti. Toshkent - 2020-yil. 144-145 varaq.

25. О‘sha yerda, 146-147 varaq.

26. О‘sha yerda, 147-148 varaq.

27. Shodmonov H., Rahmonov K. va b. Buxoro va buxoriylarning jahoniy shuhrati. “Navro‘z” nashriyoti. Toshkent - 2020-yil. 144-145 varaq.

28. О‘zМА, R-1914 jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 1-ishjild, 27-varaq.

29. А.Х. Бабаходжаев. Провал Английской политики в Средней Азии и на Среднем Востоке (1918-1924). Издательство Восточной Литературы. Москва -1962 г. стр.87